

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI BA'ZI QARINDOSH-URUG'CHILIK LEKSIKASI ASOSIDA SHAKLLANGAN AFORIZMLARNING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI

Bo'riyeva Aziza Abduvait qizi
Termiz davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi qarindosh-urug'chilik leksikasi asosida shakllangan aforizmlarning mazmuniy, semantik, lingvomadaniy xususiyatlari qiyosiy tahlil qilingan. Qarindoshlik leksikasi asosida shakllangan aforizmlarda jamiyatning tarixiy tajribasi, urf-odatlari va mentaliteti aks etadi. Tadqiqotda ikki tildagi aforizmlarning o'xshashlik va farqli jihatlari aniqlanib, ular orqali shakllangan madaniy tasavvurlar izohlangan.

Kalit so'zlar: aforizm, qarindosh-urug'chilik leksikasi, lingvomadaniyat, semantika, o'xshashlik.

Har bir xalqning tilida qarindosh-urug'chilik atamaları nafaqat biologik yoki ijtimoiy munosabatlarni ifodalaydi, balki xalqning dunyoqarashi, qadriyati va milliy xotirasini o'zida mujassam etgan madaniy birliklar hisoblanadi. Aforizmlar esa ushbu birliklarning eng ixcham, mazmunli va umumlashgan ko'rinishidir. O'zbek va ingliz tillarida qarindoshlik asosidagi aforizmlar ko'p uchraydi va ular ikki xalqning qadriyat tizimini qiyoslash imkonini beradi.

Qarindosh-urug'chilik atamaları har ikki tilda ijtimoiy munosabatlar tizimini ifodalashda muhim o'rin tutadi. O'zbek tilida ota, ona, aka, opa, uka, singil, amaki, tog'a, xola, buvi, bobo kabi atamalar jamiyatning oila markazidagi mentalitetini aks ettiradi. Ingliz tilida esa father, mother, brother, sister, uncle, aunt, grandfather, grandmother kabi birliklar mavjud bo'lib, ular ham ijtimoiy aloqalar tizimida asosiy o'rin tutadi.

Aforizmlar har doim insonlar e'tiborini jalb qilib kelgan bo'lib, hozirgi paytda aforizmlarga qiziqishning ortishi, ularning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Chunki aforizmlar o'zining ko'p qirraliligi va semantik xilma-xilligi tufayli har qanday davr ruhiga mos keladi. Shuni ta'kidlash kerakki, aforizm uzoq yillar davomida faqat falsafiy-adabiy nuqtayi nazardan talqin etildi, biroq u tilshunoslik va boshqa fanlarning o'rganish mavzusiga ham aylandi va turli jihatlardan o'rganilmoqda.

Bizning tadqiqot obyektimiz sifatida milliy madaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi aforizmlar hisoblanadi.

Aforizm atamasining keng qo'llanilishiga qaramay, ushbu fenomen turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi.

Tadqiqotchi T.Koarning “**The Aphorisms of Hippocrates: With a Translation Into Latin and English**” nomli kitobida Gippokrat tomonidan aytilgan aforizmlar to‘plangan va lotin hamda ingliz tillariga tarjima qilgan. Gippokrat tomonidan bayon qilingan aforizmlar turli – tuman mavzularga tegishli bo‘lgan. Biroq, dastlab u tomonidan aytilgan aforizmlar tibbiyotga oid bo‘lgan, ushbu kitobda uch mingga yaqin aforizmlar to‘plangan¹.

A.Raimov va N.Raimovalar ham “Hikmatlar shodasi” kitobida XVII – XX asrlarda Yevropa va Amerika adabiyoti yanada rivojlanganligini hamda shu kitobda shu davrlarda yashab ijod qilgan G‘arb mamlakatlarining atoqli shaxslari, adib xamda shoirlarining aforizmlaridan namunalar kiritilganligini ta’kidlaydi².

Mashhur faylasuf, shoir Robert Maknish (Robert Macnish)ning “**Book of aphorisms**” nomli kitobida hikmatli so‘z bu-muallifi aniq bo‘lgan dono fikrli insonlarni ezgulikka da’vat etuvchi hikmatli gap deb, ta’rif berilgan. Shuningdek, ushbu kitobda uch mingga yaqin aforizmlar jamlangan³.

Dunyo mutafakkirlari va ulug‘ ajdodlarimizning buyuk ma’naviyatning mahsuli bo‘lgan dono fikrlari, pand-nasihatlar, aforizm va ibratli so‘zlari xalqimizni hamisha adolatli ish tutishga, to‘g‘ri yo‘ldan adashmaslikka undovchi ziyo mash’alasi bo‘lib kelgan. Bu bebaho boyliklar xalq ma’naviy olamining go‘zal va buyuk namunasi bo‘lib, ijtimoiy – siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy hayotimizda ularning tutgan o‘rni muhimdir. Donolar o‘g‘itlari, hikmatli so‘zlar, ayniqsa, yoshlarning ichki olami, ruhiy dunyosi va tafakkurini shakllantirishda katta o‘rin tutadi⁴.

Inglizcha: Your parents weren’t this boring and uncaring before you were born. They became this way in the process of creating your happy childhood [Siz tug‘ilguningizcha ota-onangiz bu qadar zerikarli va befarq bo‘lmagan. Ular sizning baxtli bolaligingizni yaratish jarayonida shunday bo‘ldi]. (**Bill Gates**)

O‘zbekcha: Oilada ota – onalar ayniqsa o‘qimishli ota – onalar o‘z farzandlarining haqiqiy inson bo‘lib kamol topishiga alohida e’tibor berishlari lozim.

(**Mirzo Ulug‘bek**)

Inglizcha: When I was five years old, my mother always said that happiness is the most important thing in life. When I went to school, they asked me what I wanted to be when I grew up. I wrote: "I want to be a happy person." Then they told me that I didn’t understand the question, and I replied that they didn’t understand life [Besh yoshligimda onam har doim hayotdagi eng muhim narsa baxt ekanligini ta’kidlagan. Maktabga borganimda mendan katta bo‘lganimda kim bo‘lishni xohlayotganimni

¹ Thomas Coar “The Aphorisms of Hippocrates: With a Translation Into Latin and English”. – New York, 1982. – 314 p.

² Раимов А., Раимова Н. “Хикматлар шодаси” – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2013. – 400 б.

³ Robert M. Book of aphorisms. – Glasgow, W.R. McPhun, 1834. – P.8.

⁴ Ёшларга донолар ўғити / Тузувчилар: О.Салимов, Қ.Қуронбоев, М.Бекмуродов, Л.Тангриев, Н.Халилов – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. – Б.5.

so‘rashdi. Men yozdim: "Men baxtli odam bo‘lishni xohlayman". Keyin ular menga savolni tushunmayapman deyishdi, men esa hayotni tushunishmaydi deb javob berdim]. (**Jon Lennon**)

O‘zbekcha: Ota-onalar ikki xil: tug‘ilish otasi va ta’lim berish otasi; birinchisi jismoniy hayot sababli, ikkinchisi ruhiy hayot sababli. (**Al Xorazmiy**)

Inglizcha: We cannot understand parental love until we become parents ourselves [O‘zimiz ota-ona bo‘lmagunimizcha, ota-ona mehrini tushuna olmaymiz]. (**Genri Uord Bicher**)

O‘zbekcha: Do‘stni xo‘rlash – gunoh. Umr yo‘ldoshini xo‘rlash – yuz hissa gunoh. Ota-onani xo‘rlash – ming hissa gunoh. Go‘dakni xo‘rlash – cheksiz gunoh. (**O‘tkir Hoshimov**)

O‘zbekcha: Ayollarning kuchiga ishonmagan kishining, onasiz o‘tadigan bolalikka qaytib qolishini juda-juda xohlardim.

Inglizcha: When I was growing up, my parents told me, 'Finish your dinner. People in China and India are starving.' I tell my daughters, 'Finish your homework. People in India and China are starving for your job [Katta bo‘lganimda ota-onam menga: "Kechki ovqatni bitir. Xitoy va Hindistonda odamlar ochlikdan qiynalmoqda". Men qizlarimga aytaman: "Uy vazifangizni bajaring. Hindiston va Xitoyda odamlar sizning ishingizga och qolmoqda]. (**Thomas Friedman**)

Doimiy ravishda rivojlanib boradigan aforizmlar juda uzoq tarixga ega. Aforizmlar turli sohalarida (masalan, tibbiyot, falsafa, adabiyot va boshqalarda) qo‘llanilgan, shuningdek, ushbu sohalarida boyitilgan. Aytishimiz mumkinki, aforizm ijtimoiy va madaniy ahamiyatga molik til birligi bo‘lib, u rivojlangan, rivojlanmoqda va kelajakda rivojlanadi.

Tadqiqotchilarning fikrlari va tahlil natijasida qayd etish joizki, aforizmlar xalqning ma’naviy madaniyati, urf-odatlar, kasbi, turmush tarzi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, qisqa, ixcham, mazmunli birliklar har bir davr ruhiga mos keladi. Chunki bugungi mustaqillik va milliy qadriyatlarning tiklanish davri so‘zlovchidan tilni, ayniqsa, davlat tili maqomiga ega bo‘lgan o‘zbek adabiy tilini puxta egallashni, o‘z fikrini ixcham, asosli, obrazli va ta’sirchan bayon etishni taqozo etmoqda. Bu nutqda faol qo‘llaniladigan hikmatli so‘zlarni (aforizmlarni) lingvistik tadqiq qilish bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning bugungi kundagi dolzarbligi va ahamiyatidan dalolat beradi.

Tahlillardan kelib chiqib qayd etish joizki, aforizmlar xalqning tafakkurini, milliy qadriyatlarini belgilab beruvchi paremiologik birlik sanaladi. Tahlilga tortilgan aforizmlar son jihatdan bir-xil emas. Shu bilan birga, ularning lingvomadaniy xususiyatlari har ikkala xalq tarixi, milliy mentaliteti, moddiy hamda ma’naviy madaniyati, an’anaviy xo‘jaligi, ijtimoiy kundalik turmush tarzi, qadriyati hamda diniy

e'tiqodi, maishiy hayoti va aloqalari, milliy tuyg'ulari, urf-odatlar, mamlakatlarning geografik joylashuvi kabi omillar bilan belgilanadi

O'zbek va ingliz tillaridagi qarindosh-urug'chilik leksikasi asosida shakllangan aforizmlar ikki xalqning madaniy dunyoqarashi, qadriyati va ijtimoiy munosabatlar tizimini chuqur aks ettiradi. O'zbek aforizmlarida kollektivizm, mehr-oqibat va oila birdamligi yetakchi tamoyil bo'lsa, ingliz aforizmlarida shaxsiy mas'uliyat, individualizm va realistik baholash ustunlik qiladi. Shunga qaramay, har ikki tilda ota-ona, farzand va oilaning jamiyatdagi o'rni yuksak qadrlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Thomas Coar "The Aphorisms of Hippocrates: With a Translation Into Latin and English". – New York, 1982. – 314 p.
2. Раимов А., Раимова Н. "Ҳикматлар шодаси" – Тошкент: "Ўзбекистон", 2013. – 400 б.
3. Robert M. Book of aphorisms. – Glasgow, W.R. McPhun, 1834. – 138 p.
4. Ёшларга донолар ўғити / Тузувчилар: О.Салимов, Қ.Қуронбоев, М.Бекмуродов, Л., Н. Тангриев Халилов – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. – 236 б.